Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 11 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 11

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O‘zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Sattorov Abdug‘affor
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Nematov Jo‘rabek Nematilloyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O‘zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ. МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ. МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O’zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Peshkova Xristina Vyachesloavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ro‘zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O’zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАКАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО, АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW, ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Muxamedov Xaydarali Meliyevich
Yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

12.00.06 - ТАБИИЙ РЕСУРСЛАР ҲУҚУҚИ. АГРАР ҲУҚУҚ. ЭКОЛОГИК ҲУҚУҚ / ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО; АГРАРНОЕ ПРАВО; ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО / NATURAL RESOURCE LAW; AGRARIAN LAW; ENVIRONMENTAL LAW

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Jo‘rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Yeshanova Dauletbike Ametbekovna
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

12.00.07 - СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. АДВОКАТУРА / СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА / THE JUDICIAL AUTHORITY. PROSECUTOR SUPERVISION. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES. ADVOCACY

Po‘latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O‘zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

12.00.08 - ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ / УГОЛОВНОЕ ПРАВО И КРИМИНОЛОГИЯ; УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО / CRIMINAL LAW AND CRIMINOLOGY; CRIMINALLY-EXECUTIVE LAW

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Rozimova Qunduz Yuldashevna
Yuridik fanlar doktori, dotsent (O’zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog‘iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo‘shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

12.00.09 - ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА. ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ / УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС, КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА / CRIMINAL PROCEDURE, CRIMINALISTICS, OPERATIVE-SEARCH LAW AND JUDICIAL EXAMINATION

Inog‘omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
To‘laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O’zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog‘iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

12.00.10 - ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ / МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО / INTERNATIONAL LAW

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O’zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germanya)

MUSAHHIH: NURMUHAMMAD HAMIDOV

DIZAYN - SAHIFALOVCHI: XURSHID MIRZAXMEDOV

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Овулов Пўлатжон Илҳом ўғли
ДАВЛАТ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАР ЖАВОБГАРЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ.....5

2. Рашидова Шахзода Раимовна
ИНСТИТУТ СЕМЕЙНОЙ МЕДИАЦИИ: ПРАВОВОЙ ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И АРАБСКИХ СТРАН (ОАЭ И ЕГИПТА).....20

3. Raximov Dilmurodjon G‘ulomjon o‘g‘li
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI ENG MUHIM SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....27

4. Максумова Наргиза Алишеровна
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИЗНАНИЯ ИМУЩЕСТВЕННЫХ ПРАВ ПО ДОГОВОРУ ДОЛЕВОГО УЧАСТИЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ОБЩИМ ИМУЩЕСТВОМ СУПРУГОВ.....39

5. Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ОИЛАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ШАРТНОМАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАР, НОТАРИАЛ ТАРТИБ ВА НИЗОЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ.....47

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich
ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY BOSQICHI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, OCHIQLIK VA JAMOATCHILIK ISHONCHI.....58

7. Akramova Muazzam Turdiqul qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA TIJORAT TASHKILOTLARI MANSABDOR SHAXSLARINING KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIGI.....65

8. Nodirov Muzaffar Akhmadovich, Nurmukhamedov Sardorbek Elmuradovich
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CRIMINAL LIABILITY: CAN ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS BE SUBJECTS OF A CRIME?.....74

9. Saidov Olim Chorikulovich
BOSHQA HUQUQIY OILALAR VAKILLARINING TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN IMPLEMENTATSIYA STRATEGIYASI.....83

10. Seytnazarov Qurbanbay Reyimbayevich
MDH MAMLAKATLARI JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUD ISH YURITUVIDA TORTISHUV INSTITUTI.....90

11. Умаров Бахтиёр Усмонович
ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОХРАННОСТИ ЦИФРОВЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ.....96

12. Бабаева Иродахон Эркинжон кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....104

ISSN: 2181-9130
www.tadqiqot.uz
ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

12.00.09-УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Saidov Olim Chorikulovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: osaidovch@gmail.com

BOSHQA HUQUQIY OILALAR VAKILLARINING TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN IMPLEMENTATSIYA STRATEGIYASI

For citation: Saidov Olim Chorikulovich. EXPERIENCE OF OTHER LEGAL FAMILIES AND AN IMPLEMENTATION STRATEGY FOR UZBEKISTAN. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24167513

ANNOTATSIYA

Maqolada mahkumlarni topshirish sohasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va arab davlatlari tajribasi tahlil qilingan. Yaponiya va Janubiy Koreyaning milliy qonunlari va ularning Yevropa Kengashining 1983-yilgi Mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilishi, arab davlatlarida esa 1983-yilgi Ar-Riyod arab sud hamkorligi kelishuvi va ikki tomonlama shartnomalarga asoslangan amaliyot, xususan, BAA va Saudiya Arabistoni misolida ko‘rib chiqilgan. Topshirish shartlari, jazoni milliy qonunchilikka moslashtirish va shariat me’yorlarining o‘rni yoritilgan. Tahlil natijasida O‘zbekiston uchun implementatsiya strategiyasining quyidagi asosiy yo‘nalishlari taklif etilgan: alohida qonun qabul qilish, xalqaro shartnomalarni kengaytirish, institutsional mexanizmni takomillashtirish, reabilitatsiyaning ustuvorligi va monitoring.

Kalit so‘zlar: mahkumlarni topshirish, Yaponiya, Janubiy Koreya, Ar-Riyod kelishuvi, arab davlatlari, shariat, gibrid model, implementatsiya strategiyasi.

Саидов Олим Чорикулович,
Преподаватель кафедры международного права и прав человека
Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: osaidovch@gmail.com

ОПЫТ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДРУГИХ ПРАВОВЫХ СЕМЕЙ И СТРАТЕГИЯ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется опыт государств Азиатско-Тихоокеанского региона и арабских стран в сфере передачи осуждённых. Рассмотрены национальные законы Японии и Республики Корея и их присоединение к Конвенции Совета Европы о передаче осуждённых лиц 1983 года, а также практика арабских государств, основанная на Эр-Риядском арабском соглашении о правовом сотрудничестве 1983 года и двусторонних договорах, на примере ОАЭ и Саудовской

Аравии. Освещаются условия передачи, приведение наказания в соответствие с национальным законодательством и роль норм шариата. По результатам анализа предложены основные направления стратегии имплементации для Узбекистана: принятие отдельного закона, расширение международных договоров, совершенствование институционального механизма, приоритет реабилитации и мониторинг.
Ключевые слова: передача осуждённых, Япония, Республика Корея, Эр-Риядское соглашение, арабские государства, шариат, гибридная модель, стратегия имплементации.

Saidov Olim Chorikulovich,
Lecturer of the Department of International Law and Human Rights
at Tashkent State University of Law
E-mail: osaidovch@gmail.com

EXPERIENCE OF OTHER LEGAL FAMILIES AND AN IMPLEMENTATION STRATEGY FOR UZBEKISTAN

ANNOTATION

The article analyses the experience of Asia-Pacific and Arab states in the transfer of sentenced persons. It examines the national legislation of Japan and the Republic of Korea and their accession to the 1983 Council of Europe Convention on the Transfer of Sentenced Persons, as well as the practice of Arab states based on the 1983 Riyadh Arab Agreement for Judicial Cooperation and bilateral treaties, with reference to the United Arab Emirates and Saudi Arabia. The conditions of transfer, the adaptation of sentences to national law and the role of Sharia norms are discussed. On this basis, the main directions of an implementation strategy for Uzbekistan are proposed: adoption of a separate law, expansion of international treaties, improvement of the institutional mechanism, priority of rehabilitation, and monitoring.
Keywords: transfer of sentenced persons, Japan, Republic of Korea, Riyadh Agreement, Arab states, Sharia, hybrid model, implementation strategy.

Osiyo-Tinch okeani va Arab davlatlarida mahkumlarni topshirish amaliyoti o‘ziga xos gibrid modellarni namoyish etadi. Sababi, mahkumlarni topshirish kontinental huquq an’analari, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari hamda shariat prinsiplari asosida zamonaviy xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashadi. Boshqa huquqiy oilalar vakillarining tajribasi bu mexanizmning turli huquqiy tizimlarga moslashuvchanligini namoyon etadi.

Yaponiya tajribasi mintaqada eng aniq hujjatlashtirilgan misollardan biridir. Yaponiya (kontinental huquq ta’siridagi, lekin o‘ziga xos “gibrid” tizim) mahkumlarni topshirish mexanizmini 2002-yilda qabul qilingan “Mahkumlarni transmilliy topshirish to‘g‘risida”gi Qonun (Law No. 66 of 2002) [1] hamda 2003-yilda Strasburg Konvensiyasiga [2] a’zo bo‘lish orqali tartibga soladi. Mazkur qonun xorijda yakuniy hukm chiqarilgan va jazoni o‘tayotgan yapon fuqarosi hamda Yaponiyada yakuniy hukm asosida ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortilgan xorijiy fuqaroga nisbatan jazo ijrosida ko‘mak ko‘rsatish masalalarini tartibga soladi. Qonun mahkumning axloqan tuzalishi va reabilitatsiyasiga ko‘maklashish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, Yevropa Kengashi Konvensiyasiga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Yaponiya qonunchiligida topshirish mahkumning roziligi bilan amalga oshiriladi, bunda xorijiy hukm qonuniy kuchga kirgan bo‘lishi va qilmish Yaponiya qonunchiligiga ko‘ra ham ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan jinoyat bo‘lishi shart [1, 5-modda]. Jazoning o‘talmagan qismi bo‘yicha talab esa Konvensiyada belgilangan: u kamida olti oy bo‘lishi lozim [2, 3-modda]. Amaliyotda Yaponiya Konvensiyaga a’zo bo‘lmagan davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar asosida ham hamkorlik qiladi. Masalan, Tailand bilan mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi shartnoma 2009-yil 22-iyulda Pxuketda imzolangan va 2010-yil 28-avgustda kuchga kirgan [3; 4]. 2009-yilda Yaponiyadan 35 nafar xorijiy mahkum, jumladan Niderlandiya, Koreya Respublikasi, AQSH va Buyuk Britaniya fuqarolari o‘z davlatlariga topshirilgan [4]. Bu tizim mahkumning “axloqan tuzalishi va reabilitatsiyasi”ni asosiy maqsad qilib qo‘ygan [1, 1-modda].

Tahlillar natijasida shuni qayd etish kerakki, Yaponiya amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Xususan, mahkumlarni topshirish jarayonini Yaponiya Adliya vazirligi (Ministry of Justice) muvofiqlashtiradi. Xorijda hukm qilingan yapon fuqarolarini qabul qilishda (transfer in) Adliya vaziri Tokio okrug prokuraturasi rahbariga ko‘rsatma beradi, prokuror esa Tokio okrug sudiga murojaat qiladi va sud topshirish mumkinligi to‘g‘risida qaror chiqaradi [1, 7–10-moddalar]. Xorijiy jazo Yaponiyada “yordam jazosi” sifatida ijro etiladi: umrbod ozodlikdan mahrum qilish umrbod jazo sifatida saqlanadi, muayyan muddatli jazo esa xorijda qamoqqa olingan kundan boshlab 30 yil bilan cheklanadi (hukm vaqtida 20 yoshga to‘lmagan shaxslar uchun 15 yil) [1, 17-modda].

Janubiy Koreya (konfutsiychilik an’analari va zamonaviy kontinental huquq uyg‘unligidagi tizim) 2003-yilda “Mahkumlarni xalqaro topshirish to‘g‘risidagi qonun”ni (Act on the International Transfer of Sentenced Persons, Act No. 7033) [5] qabul qildi. Koreya kontinental (german-yapon ta’sirida shakllangan) huquq an’anasiga tayansa-da, 2005-yilda Yevropa Kengashining 1983-yilgi “Mahkumlarni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga ko‘p tomonlama asosda qo‘shilgan. Buning natijasida 2019-yil holatiga Koreya Yevropa Kengashining 46 a’zo davlati hamda Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Yevropadan tashqaridagi 21 davlat bilan mahkumlarni topshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan [6]. Ushbu misol Osiyodagi yirik kontinental-gibrid huquq tizimiga ega davlatning Yevropa andozasidagi ko‘p tomonlama mexanizmga qanday integratsiya qilinganini aniq ko‘rsatadi va boshqa davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun amaliy yo‘l-yo‘riq vazifasini bajarishi mumkin.

“Mahkumlarni xalqaro topshirish to‘g‘risidagi qonun”iga ko‘ra, qabul qilingan mahkumga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijrosi bilan bog‘liq barcha masalalar shartli ozod etish, afv etish va jazoni yumshatish kabi Koreya Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jazoni o‘tash muassasalari mahbuslarini boshqarish va davolash to‘g‘risidagi qonun hamda boshqa tegishli normativ hujjatlar asosida hal qilinadi. Muhim protsessual kafolat sifatida ne bis in idem (bir jinoyat uchun ikki marta jazolanmaslik) prinsipi tatbiq etiladi: agar xorijiy davlatda qabul qilingan mahkumga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijro etilayotgan bo‘lsa yoki jazo ijrosi tugatilgan yoxud ijro etilmasligi yakuniy bo‘lsa, xuddi shu faktlar asosida unga nisbatan yangi jinoiy ish qo‘zg‘atilishi mumkin emas.

Qonunning maqsadi “mahkumlarning reabilitatsiyasi va jamiyatga tezroq qaytishini osonlashtirish”dir [5, 1-modda]. Topshirish shartlari orasida ikki tomonlama jinoiylik, hukmning yakuniyligi, mahkumning (yoki vakilining) roziligi va qolgan jazo muddati kamida bir yil bo‘lishi belgilangan [5, 11, 19-moddalar; 2, 3-modda]. Konvensiyadan tashqari, Koreya Mo‘g‘uliston, Xitoy, Vyetnam, Hindiston, Quvayt, Tailand, Gonkong va Qirg‘iziston bilan mahkumlarni topshirish to‘g‘risida ikki tomonlama shartnomalar tuzgan [6]. O‘zbekiston bilan esa Koreya o‘rtasida jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam va ekstraditsiya to‘g‘risidagi shartnomalar amal qiladi [7; 8], biroq mahkumlarni topshirish bo‘yicha alohida shartnoma tuzilmagan. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qirg‘iziston bilan bunday shartnoma mavjudligi O‘zbekiston uchun ham bu yo‘nalishda muzokaralar boshlashga asos bo‘la oladi. Amaliyotda Koreya Markaziy hokimiyati (Adliya vazirligi) diplomatik kanallar orqali so‘rovlarni ko‘rib chiqadi va mahkumning ijtimoiy bog‘liqligini (oila, til, madaniyat) hisobga oladi [5, 4, 12-moddalar].

Janubiy Koreya qonunchiligiga ko‘ra, mahkumning yoki uning qonuniy vakilining yozma roziligisiz topshirish tartibi amalga oshirilmaydi. Bundan tashqari, agar mahkumni topshirish Koreya Respublikasining milliy xavfsizligi, jamoat tartibiga putur yetkazsa yoki mahkum topshirilayotgan davlatda shafqatsiz va inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor bo‘lish xavfi mavjud bo‘lsa, topshirish qat’iy rad etiladi.

Shunday qilib, Koreya o‘z milliy protsessual qonunchiligini saqlagan holda, keng xalqaro konvension mexanizmga integratsiyalashgan gibrid modelni namoyish etadi.

Musulmon huquqiy oilasiga mansub davlatlar (Saudiya Arabistoni, BAA, Misr, Iordaniya va boshqalar) o‘rtasidagi mahkumlarni topshirish mexanizmi asosan 1983-yildagi “Sud hamkorligi bo‘yicha Riyoz Arab bitimi” (Riyadh Arab Agreement for Judicial Cooperation) [9] va ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Arab davlatlari amaliyotida eng muhim xususiyat jazoning Shariat me’yorlariga muvofiqligidir. Masalan, agar xorijiy davlat sudi tomonidan tayinlangan jazo turi yoki muddati

Shariat huquqi va milliy “jamoat tartibi”ga zid bo‘lsa, qabul qiluvchi arab davlati jazoni o‘z sudi orqali qayta malakalaydi. Bundan tashqari, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy yoki ma’naviy zarar, shuningdek, qon puli (diyat) va fuqarolik da’volari to‘latilmagani mahkumni boshqa davlatga topshirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Arab mamlakatlari ko‘pincha giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasi va davlat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bo‘yicha mahkum qilingan shaxslarni topshirishda qat’iy cheklovlar o‘rnatadi.

Birlashgan Arab Amirliklari amaliyoti shariat va zamonaviy xalqaro-huquqiy mexanizmlar sintezining yaxshi namunasidir. BAA Riyod Arab sud hamkorligi Konvensiyasining ishtirokchisi bo‘lib, u Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Iroq, Jazoir, Iordaniya, Kuvayt, Livan, Liviya, Tunis va Marokash kabi davlatlar uchun amal qiladi. Bundan tashqari, BAA Buyuk Britaniya, Fransiya, Hindiston, Pokiston, Eron, Avstraliya, Xitoy, Misr, Qozog‘iston va boshqa davlatlar bilan sud hamkorligi bo‘yicha ikki tomonlama shartnomalar tuzgan [10]. Aniq misol sifatida 2011-yilda BAA va Hindiston o‘rtasida mahkumlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan bo‘lib, u har ikki davlat hukm chiqarilgan mahkumlarni jazoni vatanida o‘tashi uchun o‘tkazish imkonini beradi [11]. Avstraliya bilan ham shunga o‘xshash hujjat mavjud: Avstraliya Hukumati va BAA Hukumati o‘rtasida Mahkumlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi Shartnoma 2018-yil 9-mayda Kanberrada imzolangan va keyinchalik kuchga kirgan [12]. Arab davlatlari bu sohada Osiyo davlatlari bilan ham hamkorlik qilmoqda: xususan, Quvayt Koreya bilan mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi shartnomaga ega [6].

Saudiya Arabistonida esa ikki tomonlama amaliyot ustunlik qiladi. Masalan, Buyuk Britaniya bilan 2012-yil 2-yanvarda Er-Riyodda imzolangan va 2012-yil 2-iyulda kuchga kirgan Mahkumlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi Bitim mavjud [13]. Saudiya Arabistonining jinoiy-ijroiya tizimi shariat huquqi (fiqh) prinsiplariga asoslangan bo‘lsa-da, xalqaro mahkumlarni o‘tkazish sohasida u G‘arb davlatlari bilan sof dunyoviy, shartnomaviy (kontraktual) til va mexanizm orqali hamkorlik qiladi. Ya’ni ichki jinoiy-moddiy huquqda shariat saqlanib qolgan holda, protsessual va xalqaro-hamkorlik sathida umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashuv yuz bermoqda. Bu «gibridlik»ning o‘ziga xos va noyob shakli hisoblanadi. Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani va Arab davlatlari amaliyoti mahkumlarni topshirish sohasida milliy huquqiy an’analarni saqlab qolgan holda xalqaro va mintaqaviy mexanizmlarga integratsiyalashuvning turli shakllarini namoyish etadi. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim saboqlar beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mintaqaviy shartnomalardan tashqari, ko‘ptomonlama yana boshqa mintaqaviy mexanizmlar mavjud. Masalan, 1983-yil aprel oyida Arab davlatlari Adliya vazirlari kengashi sud sohasida hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan Ar-Riyod arab kelishuvini tasdiqlashdi [9]. Ar-Riyod konvensiyasi 71 moddadan iborat sakkiz bo‘limli hujjatdir. Birinchi bo‘lim umumiy prinsiplarga bag‘ishlangan bo‘lsa, sakkizinchi bo‘limda esa yakunlovchi qoidalar mavjud. Uning qoidalari, jumladan sud hujjatlari va sudga tegishli bo‘lmagan boshqa hujjatlar; sud buyruqlari; guvohlar hamda jinoyat-ijroiya yoki jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertlar ishtiroki; fuqarolik, shaxsiy maqomi, tijorat va ma’muriy harakat tartibida taqdim etilgan sud qarorlarini tan olishni ta’minlaydi. Mazkur kelishuvning VII bo‘limida (58–63-moddalar) mahkumlarni jazo o‘tashni davom ettirish uchun o‘z davlatiga topshirish jarayonini yengillashtiruvchi tartib-qoida o‘z aksini topgan. Unda, mahkumlarni topshirish shartlari, sud hukmi ijro etilishi mumkin bo‘lmagan holatlar, jazoni ijro etish, umumiy yoki maxsus amnistiya oqibatlari, qarorlarni bajarilishini talab qiluvchi ahdlashuvchi tomonning qonunlarida nazarda tutilgan ikkilamchi va qo‘shimcha jazo choralarini qo‘llash hamda topshirish jarayoni xarajatlari o‘z aksini topgan [9, VII bo‘lim].

O‘zbekiston uchun implementatsiya strategiyasi yuqoridagi tajribalarni hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim. Hozirgi kunda O‘zbekiston o‘n bir davlat bilan mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomaga ega: Birlashgan Arab Amirliklari, Gruziya, Latviya, Ozarbayjon, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina, Eron, Italiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston [14]. Ichki protsessual asos esa 2024-yil 4-dekabrdagi O‘RQ-1009-sonli Qonun bilan yaratildi: Jinoyat-protsessual kodeksi xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish, mahkumni qabul qilib olish va xorijiy davlatga berishga bag‘ishlangan 66-bob (610–623-moddalar) bilan to‘ldirildi [15]. Kodeksning 611-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan chet el

fuqarosi o‘z fuqaroligi mansub davlatga berilishi, xorijiy davlat sudi tomonidan hukm qilingan O‘zbekiston fuqarosi esa qabul qilib olinishi mumkin. 613-modda Bosh prokuraturani markaziy organ sifatida belgilaydi, xorijiy hukm esa sud ajrimi bilan tan olinadi (615-modda). 621-moddada berishni rad etishning to‘qqizta asosi, jumladan, jazoning o‘talmagan qismi olti oydan kam bo‘lishi nazarda tutilgan.

Biroq yangi mexanizmning amaliy natijalari hali cheklangan. Bosh prokuratura ma’lumotlariga ko‘ra, 2024–2026-yillarda O‘zbekiston xorijdan 113 nafar o‘z fuqarosini jazoni o‘tashni davom ettirish uchun qabul qilib olgan bo‘lsa (ularning 111 nafari Qozog‘istondan), xorijiy davlatlarga atigi 3 nafar mahkumni topshirgan [16]. Shartnomaviy baza ham asta-sekin kengaymoqda: Qirg‘iziston bilan 2024-yil 18-iyulda Toshkentda imzolangan shartnoma 2025-yil 9-iyundagi Qonun bilan ratifikatsiya qilinib, 2025-yil 24-sentabrdan kuchga kirdi. Uning 3-moddasi markaziy organlar ikki davlat Bosh prokuraturalariga bevosita, jumladan, elektron aloqa vositalari orqali muloqot qilish imkonini beradi [17]. Shunga qaramay, Rossiya bilan bitim yo‘qligi (Rossiyada taxminan 3 ming O‘zbekiston fuqarosi jazo o‘tamoqda) va Yevropa Kengashi Konvensiyasiga qo‘shilmaganlik amaliyotni cheklaydi [18]. Bu jihatdan Koreya tajribasi ibratlidir: Konvensiyaga qo‘shilish unga bitta xalqaro hujjat orqali o‘nlab davlatlar bilan topshirish imkoniyatini bergan.

Ko‘rib chiqilgan tajribalarni umumlashtirib, uchta yondashuvni ajratish mumkin. Birinchisi, Yaponiya modeli bo‘lib, unda alohida milliy qonun, sud nazorati va Yevropa Kengashi Konvensiyasiga a’zolik birlashtirilgan. Ikkinchisi, Koreya modeli: milliy qonun Konvensiya bilan bir qatorda keng ikki tomonlama shartnomalar tarmog‘i bilan to‘ldirilgan. Uchinchisi, arab davlatlari modeli bo‘lib, unda mintaqaviy Ar-Riyod kelishuvi va G‘arb davlatlari bilan tuzilgan ikki tomonlama bitimlar ichki huquqdagi shariat me’yorlari bilan birga qo‘llaniladi. O‘zbekiston hozirda ikkinchi modelga yaqin turibdi, biroq uning shartnomaviy tarmog‘i chet ellik mahkumlar va xorijda jazo o‘tayotgan fuqarolarning asosiy qismi to‘g‘ri keladigan davlatlarni to‘liq qamrab olmagan.

Strategiya quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Yaponiya va Koreya tajribasidan foydalanib, alohida “Mahkumlarni xalqaro topshirish to‘g‘risidagi qonun” qabul qilish unda mahkumning roziligi, ikki tomonlama jinoiylik, qolgan muddat (kamida 6 oy) va inson huquqlari kafolatlari aniq belgilansin. BMTning Chet ellik mahbuslarni topshirish to‘g‘risidagi namunaviy kelishuvi (1985) va Yevropa Kengashi Konvensiyasi normalarini implementatsiya qilish. Shuningdek, mahkum roziligining ixtiyoriyligi, unga topshirishning huquqiy oqibatlari o‘zi tushunadigan tilda tushuntirilishi, tarjimon va himoyachi ishtiroki hamda rozilikni qaytarib olish tartibi qonunda aniq belgilanishi kerak.

2. Xalqaro shartnomalarni kengaytirish. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Yaponiya va arab davlatlari bilan yangi ikki tomonlama bitimlar tuzish; ShHT va MDH doirasida ko‘p tomonlama mexanizmlarni faollashtirish. BAA va Eron bilan mavjud bitimlar amaliyotini chuqurlashtirish. Bunda ustuvorlik chet ellik mahkumlarning asosiy qismi to‘g‘ri keladigan davlatlarga berilishi lozim 2026-yil 25-iyul holatiga O‘zbekistondagi 335 nafar chet ellik mahkumning 122 nafari Tojikiston fuqarolari bo‘lgan [19], biroq bu davlat bilan mahkumlarni topshirish bo‘yicha maxsus shartnoma mavjud emas.

3. Institutsional mexanizm. Bosh prokuratura va Adliya vazirligi huzurida maxsus bo‘linma tashkil etish; diplomatik kanallar orqali so‘rovlarni tezlashtirish; mahkumlar va ularning oilalarini xabardor qilish tizimini joriy etish (Yaponiya va Koreyadagi amaliyot kabi). Bundan tashqari, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, sudlar va jazoni ijro etish tizimi o‘rtasida “Xalqaro topshirish ishlarining yagona elektron reyestri”ni joriy etish, unda har bir so‘rovning kelib tushgan sanasi, huquqiy asosi, qaror natijasi va jismoniy topshirish sanasini qayd etish maqsadga muvofiq.

4. Insonparvarlik va reabilitatsiya ustuvorligi. Arab davlatlari tajribasidagi oilaviy bog‘liqlik va Yaponiya–Koreyadagi ijtimoiy reabilitatsiya yondashuvlarini birlashtirib, mahkumning til, madaniyat va oila bilan aloqasini hisobga olish, jazoni yengillashtirish yoki muddatidan oldin ozod qilish imkoniyatlarini milliy qonunchilikka moslashtirish.

5. Monitoring va baholash. Har yili topshirish holatlari bo‘yicha statistika yuritish, inson huquqlariga rioya etilishini Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili va xalqaro tashkilotlar

(UNODC, OIHB) bilan hamkorlikda nazorat qilish. Statistik hisobotda mahkumni topshirish bo‘yicha kelib tushgan, yuborilgan, qanoatlantirilgan, rad etilgan va bajarilgan so‘rovlar soni alohida ko‘rsatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya, Yaponiya va arab davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mahkumlarni topshirish mexanizmi faqat huquqiy texnik vosita emas, balki insonparvarlik va davlatlararo ishonchni mustahkamlash vositasidir. O‘zbekiston uchun bu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib, keng qamrovli implementatsiya strategiyasini amalga oshirish mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, jazoning maqsadlariga erishish va xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda qonunchilik, amaliyot va xalqaro majburiyatlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Act on the Transnational Transfer of Sentenced Persons (Japan), Act No. 66 of 2002. URL: https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/122/en
2. Convention on the Transfer of Sentenced Persons (ETS No. 112). Strasbourg, 21 March 1983. URL: https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treatynum=112
3. Treaty between Japan and the Kingdom of Thailand on the Transfer of Sentenced Persons and on Cooperation in the Enforcement of Penal Sentences. Phuket, 22 July 2009 (entered into force 28 August 2010). URL: https://www.mofa.go.jp/policy/treaty/submit/session174/agree-3.html
4. Research and Training Institute of the Ministry of Justice of Japan. White Paper on Crime 2010. Part 2, Chapter 6, Section 1.7: Transfer of sentenced persons. URL: https://hakusyo1.moj.go.jp/en/59/nfm/n_59_2_2_6_1_7.html
5. Act on the International Transfer of Sentenced Persons (Republic of Korea), Act No. 7033 of 2003, as amended. URL: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=29868&type=part&key=9
6. Transfer of foreign prisoners urged // The Korea Times. 2019. 22 March. URL: https://www.koreatimes.co.kr/southkorea/globalcommunity/20190322/transfer-of-foreign-prisoners-urged
7. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi Jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi shartnoma. Toshkent, 2003-yil 12-fevral (2004-yil 23-noyabrda kuchga kirgan). (Treaty between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea on Mutual Legal Assistance in Criminal Matters. Tashkent, 12 February 2003.)
8. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi Ekstraditsiya to‘g‘risidagi shartnoma. Toshkent, 2003-yil 12-fevral (2004-yil 23-noyabrda kuchga kirgan). (Treaty between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea on Extradition. Tashkent, 12 February 2003.)
9. Riyadh Arab Agreement for Judicial Cooperation. Riyadh, 6 April 1983. URL: https://www.refworld.org/legal/agreements/las/1983/en/39231
10. Ministry of Justice of the United Arab Emirates. Bilateral Extradition and Mutual Legal Assistance Treaties Register. Abu Dhabi.
11. Agreement between the Republic of India and the United Arab Emirates on Transfer of Sentenced Persons. New Delhi, 23 November 2011.
12. Treaty between the Government of Australia and the Government of the United Arab Emirates concerning Transfer of Sentenced Persons. Canberra, 9 May 2018. URL: https://www.aph.gov.au/Parliamentary_Business/Committees/Joint/Treaties/PrisonerTransfer-UAE/Report_185
13. Agreement between the Government of the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland and the Government of the Kingdom of Saudi Arabia on the Transfer of Sentenced Persons. Riyadh, 2 January 2012 (entered into force 2 July 2012). Cm 8426. URL: https://www.gov.uk/government/publications/agreement-between-the-uk-and-saudi-arabia-on-the-transfer-of-sentenced-prisoners-riyadh-2-january-2012

14. O‘zbekiston va Qirg‘iz Respublikalari o‘rtasida mahkumlarni topshirishga oid huquqiy asos yaratildi // O‘zA. 2025-yil 11-iyun. URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-qirgiz-respublikalari-ortasida-mahkumlarni-topshirishga-oid-huquqiy-asos-yaratildi_729072

15. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 4-dekabrdagi O‘RQ-1009-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.12.2024-y., 03/24/1009/1004-son. URL: https://lex.uz/docs/7247660

16. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining mahkumlarni qabul qilib olish va topshirish bo‘yicha ma’lumotlari (2024–2026-yillar). Rasmiy axborot.

17. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 9-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirish uchun topshirish to‘g‘risidagi Shartnomani (Toshkent, 2024-yil 18-iyul) ratifikatsiya qilish haqida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/7561968

18. Ким Е. Россия готова передать 3 тыс. заключенных из Узбекистана: мешает отсутствие международного договора // Kursiv Uzbekistan. 2026. 3 апреля. URL: https://uz.kursiv.media/?p=1986527 (Russia is ready to transfer 3,000 prisoners to Uzbekistan: the absence of an international treaty is an obstacle.)

19. O‘zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish muassasalarining statistik ko‘rsatkichlari (2021–2026-yillar, har yilning 25-dekabr va 2026-yil 25-iyul holatiga). Rasmiy axborot.

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo‘yilgan talablar:

1. *Maqola o‘zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig‘ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo‘lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo‘lib, satrlarni eniga to‘g‘irlash, so‘zlarni boshqa qatorga ko‘chirish avtomatik tarzda bo‘lishi lozim.*
2. *Birinchi qator o‘ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o‘rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma’lumotlar o‘zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.*
3. *Keyingi qatordan o‘zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida so‘zdan iborat annotatsiya beriladi.*
4. *Keyingi qatordan 6-10 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida kalit so‘zlar beriladi.*
5. *Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so‘zi minimal 2000 ta bo‘ladi.*
6. *Adabiyotlarning to‘liq ro‘yxati asosiy matndan so‘ng alifbo tartibida ko‘rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].*
7. *Maqolada keltirilgan dalillarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’ul, plagiat holati taqiqlanadi.*
8. *Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.*

Требования к оформлению научной статьи:

1. *Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.*
2. *В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.*
3. *Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.*
4. *Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.*
5. *Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.*
6. *Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, С.25].*
7. *Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.*
8. *Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.*

Requirements of the articles submitted:

1. *Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.*
2. *In the first line on the right: the author’s surname, given name and patronymic; in the second line: the author’s affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.*
3. *Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.*
4. *Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.*
5. *Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.*
6. *The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].*
7. *The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.*
8. *It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.*